



Date: 21 May 2026

## HOZIRGI KUNDA MAKTABLARDA PSIXOLOGNING O'RNI!

Yo'ldosheva Sevara Ikramovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi 33-son ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktabining psixologi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktablarda psixologik xizmatning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Unda psixologik xizmatning asosiy vazifalari, o'quvchilar ruhiy holatini o'rganish, ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish hamda ta'lim jarayonidagi muammolarni bartaraf etishdagi ro'li yoritilgan.

Kirish so'zlar: psixolog, maktab, o'quvchi, xizmat, vazifa.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki ularning ruhiy salomatligi va shaxs sifatida rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli maktablarda psixologik xizmatni samarali tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi kunda biz zamonaviy hayotda yashayapmiz, shuning uchun farzandlarimiz ham, zamon bilan hamnafas ulg'aymoqdalar. Farzandlarimizning ruhan sog'lom ulg'ayishida psixologning o'rni juda muhim bo'lib bormoqda, jadal rivojlanayotgan bir davrda farzandlarimizda agressivlik, jahldorlik kuchaymoqda, men maktab psixologi sifatida shuni aytishim mumkinki, to'g'ri hozirgi kunda farzandlarimiz va maktab o'quvchilari orasida zo'rvonlik va kamsitish holatlari juda ko'paymoqda buning asl sababi internet, telefon va gajetlarning rivojlanganligidandir. Chunki gajetlardan har-xil turdagi videolar tomasha qiladilar va ularning mohiyatini to'g'ri tahlil qilmaydilar. Endi zo'rvonlik haqida gapiradigan bo'lsak, Zo'rvonlik-bu o'z mavqei va imkoniyatlarini suiiste'mol qilgan holda qasddan o'ziga va boshqa shaxsga yoki bir guruh shaxslarga qaratilgan, jismoniy kuch ishlatish shakli. Jismoniy kuch ishlatish orqali o'lim va nogironlikka olib keladigan tanaga shikast yetkazish hisoblanadi. Maktab psixologi zo'rvonlikni aniqlashda nimalarga e'tibor beradi: 1. Har bir bolaning ijtimoiy posportini shakllantirib olishi zarur, bunda har bir o'quvchining oilaviy ahvoli haqida ma'lumot yig'iladi, chunki, har bir tarbiya negizida oilaviy ahvol turadi. Agar bola oilada mehr - e'tibor ko'rmagan bo'lsa, kamsitilishga uchragan bo'lsa, uning fikri oila a'zolari tomonidan so'ralmasa, o'quvchi bilan dildan suhbatlashilmasa, bolada agressivlik shakllana boradi va bora-bora bu agresiyani yuzaga chiqaradi. Yana psixolog sinf rahbarlar bilan ham hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yishi kerak, bunda, sinf rahbar xulqida o'zgarish kuzatilgan o'quvchini darrov aniqlab psixologga murojaat qilsa katta muammolarning oldini olingan bo'lar edi. Bolada qanday o'zgarishlar kuzatiladi, bu- juda sho'x bolalar jiddiy tusga kirib olsa, yoki og'ir- bosiq bolalar haddan tashqari agressiv yoki jahldor bo'lib qolsa, darslarga bo'lgan qiziqishi yo'qolsa shunga o'xshash holatlar kuzatilsa darrov psixologga murojaat qilinishi maqsadga muvofiqdir. Maktab psixologi zo'rvonlikka moyilligi bor o'quvchilarni qanday aniqlaydi, bunda, maxsus belgilangan dastur asosida so'rovnomalari olinadi. Masalan: "Devyant xulq -atvor" yoki "Delikvant xulq-atvor" so'rovnomalari, "Oilaning proektiv" metodikalari sinab ko'riladi.



Date: 21 May 2026

Aniqlangandan keyin maxsus korreksion guruh tashkil qilinib trening mashg'ulotlari olib boriladi.

2.Zamon rivojlangani sayn har-bir sohadagi mutaxasislarga o'z ustida ishlash talabi kuchaymoqda, shuningdek psixologlar ham o'z ustida ishlashi shart va zarur bo'lmoqda. Har bir psixolog o'z mutaxasisligi bo'yicha bilim, ko'nikma, va malakaga ega bo'lishi zarur. Chunki axborot komunikatsiyasi rivojlangan davrda yashamoqdamiz. Zamon rivojlangani sayn psixologlarga bo'lgan talab ham kuchaymoqda har bir inson o'zi uchun yaxshi mutaxasis izlaydigan davrdamiz, shuning uchun, psixologlar ham o'zi uchun zarur adabiyotlarni va metodikalarni o'qib borishi zarurdir.

3.To'g'ri avvallari qog'ozbozlik , hujjat to'ldirish ishlari juda ko'p bo'lgan, chunki, psixologlar qanday metodikalarni sinab ko'rish va qaysilarni olishi kerakli haqida ma'lumotga ega emas edilar. Hozir kunga kelib psixologlar uchun maxsus ish rejaları taqdim qilinadi va qaysi sinflardan qanday metodika va treninglarni o'tkazilishi aniq ko'rsatilib beriladi va shu metodika va treninglarning ilovalari ham taqdim qilinadi. Faqatgina psixologdan qilinadigan talab tayyor metodika va mashg'ulotlarni o'quvchi va o'qituvchilardan olish va shu asosida ishni tashkillashtirish. Hozirgi kunda qog'ozbozlikka chek qo'yilib barcha metodikalar elektronniy olinishi yo'lga qo'yilgan.

4.Maktab psixologlarining ish samaradorligini oshirish yuzasidan ko'plab yaxshi ishlar amalga oshirilmogda, jumladan, psixologlar uchun ustamalar joriy qilingan, toifalarini oshirish yuzasidan ham kerakli qonunlar va qarorlar chiqarilgan.

5.Zo'ravonlikka moyil , tajavuzkor yoki ijtimoiy yakkalanib qolgan o'quvchilar bilan qanday ishlarni amalga oshiraman, birinchidan , olingan metodikalar asosida o'quvchilarni aniqlab maxsus toifalarga ajratiladi, masalan, o'z- o'ziga zarar yoki o'zgalarga zarar yetkazuvchi o'quvchilar toifasi yoki oilasi notinch, oilasida muammosi bor o'quvchilar aniqlanib toifalanadi, shu asosida, maxsus belgilangan metodikalar o'tkazilib korreksion ishlar amalga oshiriladi. Hafta kunlariga ajratilib trening mashg'ulotlar olib boriladi. Har –bir toifalangan guruh uchun maxsus chora -tadbir rejaları ishlab chiqiladi.

6.To'g'ri zamon rivolanmogda yoshlarning fikrlash doirasi ham ilgari lab ketmogda guruch kurmaksiz bo'lmaganidek o'z ustida ishlamaydigan berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalana olmayotgan psixologlar ham bor yo'q emas. Bugungi yoshlar oldingi yoshlardan katta farq qiladi, yoshlar bilan ishlash ularga maslahat va ko'mak berish ancha murakkablashgan. Shuning uchun psixologlar o'z ustida ishlashi va har kuni yangiliklar izlashi shart. Psixologlarni tayyorlov va malaka oshirish kurslarida zamonaviy psixologik metodikalardan qanday foydalanish va ularni qaysi muammolarda ko'proq qo'llash kerakligi haqida o'qitilsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

7.Maktab psixologlari faqatgina o'quvchilar bilan emas maktabning o'qituvchi va ota-onalar bilan ham ishlashlari zarur. Belgilangan ish rejasi asosida o'quvchi , o'qituvchi bilan qanday ishlash va ota-onalarga qaysi metodika va mashg'ulotlarni o'tkazilishi aniq belgilab ko'rsatilgan.

8.Maktab psixologi uchun hozirgi kunda barcha shart- sharoit mavjud deb o'ylayman. Mening fikrimcha maktab psixologi uchun hech qanday tizimli muammo mavjud emas, chunki,



Date: 21 May 2026

har bir soha mutaxasisi ishni to'g'ri rejalashtib vaqtni to'g'ri taqsimlasa ish samaradorligida hech qanday muammolarga duch kelmaydi. Ishni to'g'ri taqsimlay olmasa, yoki, kim bilan qanday ishlashni bilmas ekan, u, psixologning ishi ham obroyi ham pasayaveradi.

9.O'zbekistonda maktab psixoglari ish samardorligini oshirish uchun meni fikrimcha dars soatlari ajratilsa, psixologik trening va mashg'ulotlarni o'tkazish va har bir sinf bilan yaqindan tanishish va ular bilan individual ishlash uchun ancha foydali bo'lgan bo'lar edi.

